



**VIII INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND
PRACTICAL CONFERENCE
"ABU ALI IBN SINO AND INNOVATIONS IN
MODERN PHARMACEUTICS"**

**April 24th, 2025,
Tashkent / Uzbekistan**

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ФАРМАЦЕВТИКА ИНСТИТУТИ
ИБН СИНО ЖАМОАТ ФОНДИ

**АБУ АЛИ ИБН СИНО ВА ЗАМОНАВИЙ ФАРМАЦЕВТИКАДА
ИННОВАЦИЯЛАР**

VIII ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН
МАҚОЛАЛАР ТЎПЛАМИ



**АБУ АЛИ ИБН СИНО И ИННОВАЦИИ
В СОВРЕМЕННОЙ ФАРМАЦЕВТИКЕ**

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
VIII МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

ТОШКЕНТ - 2025

METRONIDAZOL SAQLAGAN STOMATOLOGIK GEL TARKIBIGA OPTIMAL ASOS TANLASH

Alqarov A.Q., Raxmatjonova L.B., Rizayeva N.M.

Toshkent farmatsevtika instituti

Dolzarbli: Aholi orasida stomatologik kasalliklarning keng tarqalganligi og'iz bo'shlig'i kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan yangi samarali dori vositalarini izlash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Parodont kasalliklarini davolashda kerakli davolash ta'sirini ta'minlash uchun dori shaklini va unga kiritilgan dori moddalarining eng maqbul tarkibini tanlash muhim ahamiyatga ega.

Tibbiyotda klinik stomatologiyaning muvaffaqiyatli yutuqlariga qaramay, og'iz bo'shlig'i- parodontning yallig'lanish kasalliklari aholi orasida keng tarqalgan bo'lib, ushbu patologiyani davolash uchun yangi, yanada samarali usullarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etmoqda.

So'nggi vaqtlarda stomatologiya amaliyotida mahalliy davolash uchun gellardan keng foydalanilmoqda. Gellar yumshoq dorilarning xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, shu sababli applikatsiyalarda juda samarali hisoblanadi. Bundan tashqari, tanlangan dori shakli gel ko'rinishida bo'lib, uning tarkibiga turli xil terapevtik substansiyalarni kiritish imkonini beradi, bu esa keng tarqalgan ta'sirga ega bo'lgan dori shaklini yaratish imkoniyatini berdi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, biz metronidazol va nistatin saqlagan stomatologik gelning tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazdik.

Shu munosabat bilan mahalliy, uzoq muddatli davolash ta'sirini ta'minlaydigan dori shakllarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi. Stomatologik gelning faol tarkibiy qismlari sifatida antibakterial vosita - metronidazol, to'qimalardagi zamburug'larga baktiriostatik ta'sirga ega bo'lgan - nistatin tanlangan.

Tadqiqotning maqsadi: Tadqiqotning maqsadi og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining zararlanish o'choqlariga davolovchi ta'sirga ega bo'lgan stomatologiya amaliyot uchun gel dori vositalarining tarkibi, texnologiyasi va sifatini baholashdan iborat.

Stomatologik gelni tarkibini tanlashda optimal asosni xili va miqdorini tanlash, undagi dori moddasining konsentratsiyasini belgilashga alohida e'tibor qaratiladi. Shu maqsadda qator tadqiqotlar o'tkazildi.

Usul va uslublar: Gelning tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqish ikki yo'nalishda olib borildi: keyinchalik unga dori moddalarini kiritish uchun asos bo'la oladigan gel hosil qiluvchilar va plastifikatorlarni tanlash; dori moddalarining eng maqbul tarkibini aniqlash. Mumkin bo'lgan gel asoslari sifatida tabiiy va yarim sintetik polimerlarning turli konsentratsiyalardagi eritmaları o'rganildi.

Gidrofil asosda tayorlangan gelning tashqi ko'rinishi va barqarorligi baholash mezonini bo'lgan saralash tajribasi asosida eng xavfsiz va keng tarqalgan yuqori molekulyar moddalar (YUMB) sifatida metilsellyuloza (MC), jelatin, kraxmal, natriy karboksimetilsellyuloza (Na-KMC) va pektinning turli xil navlari va nisbatlari kombinatsiyasi tanlab olindi va asos sifatida o'rganildi. Plastifikator sifatida glitserin qo'llanildi va 10% miqdorda qo'shildi.

Natijalar: metronidazol saqlagan stomatologik gel tarkibi va texnologiyasi ishlab chiqildi. Sifat ko'rsatkichlaridan tashqi ko'rinishi, bir xilligi, pH ko'rsatkichi, suv va uchuvchan moddalarning massa ulushi (%), kolloid va termik turg'unligi adabiyotlarda keltirilgan usullar yordamida baholandi. O'tkazilgan tajribalar natijasida metronidazol saqlagan gel MC va pektin asoslarini saqlagan gel hosil qiluvchi xususiyati yuqoriligi aniqlandi stomatologik gelning tarkibi va texnologiyasi ishlab chiqildi.

Xulosalar: Shunday qilib, o'tkazilgan tajriba natijalari parodontning yallig'lanish kasalliklarini davolash uchun mo'ljallangan ko'p tarkibli gidrofil asosli surtmalarning tarkibi va texnologiyasini asoslash imkonini berdi.

QUYOSHDAN HIMOYALOVCHI KREM TARKIBI VA TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Aripova N.X., Baratova M.B.

Toshkent farmatsevtika instituti

Dolzarbli: O'zbekiston bozorlarida kosmetika vositalarining ko'plab turlari mavjud (krem, yuvinish vositalari, gigiyena vositalari, sovun, skrblar, losonlar, toniklar, gellar, niqoblar). Krem yumshoq kosmetik shakl bo'lib, teriga himoya, oziqlantiruvchi, namlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Kosmetik kremlar orasida terimizni tabiatning noqulay (shamol, quyosh, chang, sovuq) sharoitlaridan himoya qiluvchi quyoshdan himoyalovchi kremlar muhim rol o'ynaydi. Agar himoya kremlaridan foydalanilmasa, teri yupqalashadi, quriydi, pigmentatsiya paydo bo'ladi va hokazo. Quyoshdan himoyalovchi kremlarni yilning barcha fasllarida ishlatish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu turdagi krem terini turli xil tashqi muhit omillaridan himoya qiladi.

Tadqiqotning maqsadi: fizik filtrlar asosida quyoshdan himoyalovchi kremning optimal tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Usul va uslublar: Fizik va kimyoviy quyoshdan himoyalovchi filtrlar mavjud. Birinchisi - bunga rux oksidi va titan dioksidi kiradi - quyosh nurlarini xuddi ko'zgu kabi aks ettiradi.

Fizik yoki mineral filtrlar ta'sirlanish va allergiyani keltirib chiqarmaydi, bolalar, sezgir va reaktiv teri uchun mos keladi. Ular teri yuzasida quyosh nurlarining epidermisga chuqur kirib borishiga to'sqinlik qiladigan yengil plarda hosil qiladi.

Kimyoviy va fizik filtrlardan himoyalangan kimyoviy moddalar fotostabilizatorlar deb ataladi. Ular materiallarni ultrabinafsha nurlar, issiqlik va boshqa zararli omillar ta'sirida yemirilishdan himoya qilishga yordam beradi. Fizik filtrlar kremalar tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqishda 3 ta krem tarkibi ishlab chiqildi.

Natijalar: Tadqiqot davomida olingan gellarning sifati quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha baholandi: tavsifi, vodorod ko'rsatkichi pH, kolloid barqarorligi, termik barqarorligi va surtiluvchanligi.

Organoleptik xususiyatlarni baholash tarkiblarning tashqi ko'rinishi, rangi va hidini tavsiflash hamda ularning bir xilligini aniqlashdan iborat bo'ldi. Bir xillik mezoni sifatida DVning alohida ko'rindigan zarralari, begona aralashmalar, shuningdek, koagulyatsiya, zarrachalar agregatsiyasi, fazalar ajralishi belgilarining yo'qligi xizmat qildi.

2-namunadan tashqari barcha tarkiblar rangsiz, biroz oq rangli, hidsiz bir xil massalardan iborat. Asosi asarlari mumi va zaytun moyi bo'lgan 2-namuna xira yopishqoq massa bo'lib, och sariq rangda, kuchsiz o'ziga xos hidga ega. Vodorod ko'rsatkichi potensimetrik usulda aniqlandi.

Kolloid barqarorlikni aniqlashda ikkitadan probirka o'rganilayotgan namunalar bilan to'ldirildi, tortildi va termostatga qo'yildi va +45°C haroratda 20 daqiqa ushlab turildi. Keyin probirkalar 5 daqiqa davomida 1000 aylanish tezligida sentrifugalandi, shundan so'ng qavatlanishi aniqlandi.

Termik barqarorlikni aniqlash uchun uchta probirka havo pufakchalari qolmaydigan tarzda tajriba namunalari bilan to'ldirildi, so'ng ular +40°C haroratda 1 soat davomida termostatda qoldirildi, shundan so'ng probirkalar tarkibi shisha tayoqchalar yordamida ehtiyotkorlik bilan aralashtirildi va termostatda 24 soat qoldirildi.

Yuqoridagi laboratoriya tadqiqotlari natijalariga asoslanib, biz 1-raqamli tarkibni tanladik. Ushbu tarkibda quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan krem keltirilgan:

Vismut nitrat asosi 3,0, rux oksidi 20,0, vazelin 30,0, bodom yog'i 40,0, suvsiz lanolin 5,0, tozalangan suv 2,0.

Xulosalar: Biz quyoshdan himoyalovchi kremning uchta tarkibini tayyorladik. Tadqiqot natijalari asosida tashqi ko'rinishi, rangi, surtiluvchanligi, kolloidligi, termik barqarorligi kabi sifat ko'rsatkichlari aniqlandi. Organoleptik va fizik-kimyoviy tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, biz 1-raqamli tarkibni tanladik. Texnologik ko'rsatkichlarni o'rganish asosida quyoshdan himoyalovchi kremning optimal tarkibi va texnologiyasi ishlab chiqildi.

ANALGETIK-ANTIPIRETIK TA'SIRLI INFUZION ERITMA TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Aslonova M.A., Yusupova Sh.B.

Toshkent farmatsevtika instituti

Dolzarbligi: Tibbiyot amaliyotida analgetik va antipiretik ta'sirga ega dori vositalari keng qo'llaniladi. Bunday preparatlar og'riqni kamaytirish va tana haroratini me'yorlashtirish uchun ishlatiladi. Infuzion eritma shaklida ishlab chiqilgan analgetik-antipiretik vositalar tezkor va samarali ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lib, og'ir holatlardagi bemorlarni davolashda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi: Analgetik-antipiretik ta'sirga ega parasetamol substansiyasi asosida «Temfulgan» infuziya uchun 1% li eritmasi tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqot usullari: Parasetamol substansiyasi asosida infuzion eritmaning texnologiyasini ishlab chiqish maqsadida 15 ga yaqin namunaviy tarkiblar tayyorlandi, ulardan qoniqarli natija bergan 10 ta tarkib "TEMUR MED FARM" MChJ farmatsevtika korxonasining laboratoriya sharoitida kichik hajmda tayyorlandi.

Natijalar: Farmakologlar tomonidan olib borilgan klinik oldi sinovlari «Temfulgan» infuziya uchun 1% li 100 ml eritmasining tarkibini quyidagi tartibda tanlashga asos bo'lib xizmat qildi.

«Temfulgan» infuziyasi uchun 1% li 100 ml eritmasi tarkibida ta'sir etuvchi asosiy modda sifatida 1,0 g parasetamol (EuPh, BP., USP.) va yordamchi moddalar 4,0 g sorbitol (EuPh, BP., USP.), 0,08 g natriy sitrat digidrat (EuPh, BP., USP.), 0,2 g natriy sulfat (EuPh, BP., USP.), 100 ml gacha inyeksiya uchun suv (EuPh, BP., USP.) dan foydalaniladi. Eritmaning pH qiymatini to'g'irlash uchun limon kislotasi yoki natriy ishqoridan foydalaniladi.

«Temfulgan» infuziya uchun 1% li 100 ml eritmasini tayyorlash R-1 reaktorida amalga oshiriladi. Tayyorlanadigan eritma hajmining taxminan 0,8 miqdorida inyeksiya uchun suv saqlash idishidan toza reaktor R-1 ga o'tkaziladi. Keyin 40-45°C gacha sovutiladi. Ushbu 4500 l hajmli seriya uchun tortib olingan parasetamol- 45,0 kg, 180,0 - kg sorbitol, 3,6 kg - natriy sitrat digidrat va 9,0 kg - natriy sulfat reaktorning xomashyolarni solish lyukidan inyeksion suvga solinadi. Lyuk yopilib, reaktorning pastki qismidagi aralashtirgich ishga tushiriladi va

2-SEKSIYA.

INNOVATSION DORI PREPARATLARI, KOSMETIKA VA BIOLOGIK FAOL QO'SHIMCHALARINI ISHLAB CHIQISH, ULARNING SIFATINI TA'MINLASH

DEVELOPMENT OF INNOVATIVE MEDICINAL PREPARATIONS, COSMETICS AND BIOLOGICALLY ACTIVE SUPPLEMENTS, ENSURING THEIR QUALITY

РАЗРАБОТКА ИННОВАЦИОННЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ, КОСМЕТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ И БАД К ПИЩЕ, ОБЕСПЕЧЕНИЕ ИХ КАЧЕСТВА

INGICHGA BARGLI QO'G'A (TYPHA ANGUSTIFOLIA) XOMASHIYOSIDAN QURUQ EKSTRAKT OLISH VA TAHLILI	41
Abadjanov D.I., Saidvaliyev A.K., Olimov X.Q.	
"AVENA-UZ" NI FARMAKOTEXNOLOGIK XOSSALARINI O'RGANISH	42
Abdulkarimova M.R., Tadjiyeva A.D., Farmonova N.T.	
SUT ACHITUVCHI BAKTERIYALARNI O'T SUYUQLIGINING TURLI KONTSENTRATSIYALARI TA'SIRIGA CHIDAMLILIGI	43
Abdulxadova G.Sh.	
METRONIDAZOL SAQLAGAN STOMATOLOGIK GEL TARKIBIGA OPTIMAL ASOS TANLASH	44
Alqarov A.Q., Raxmatjonova L.B., Rizayeva N.M.	
QUYOSHDAN HIMOYALOVCHI KREM TARKIBI VA TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH	44
Aripova N.X., Baratova M.B.	
ANALGETIK-ANTIPIRETIK TA'SIRLI INFUZION ERITMA TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH	45
Aslonova M.A., Yusupova Sh.B.	
DORIVOR O'SIMLIKLAR CHAMOMILLA RECUTITA, ROSAE FRUCTUS QUERCUS CORTEXDAN YALLIG'LANISHGA QARSHI YIG'MA TARKIBI VA TEXNOLOGIYASINI ASOSLASH	46
Axmatoxunova M.K.	
DORIVOR O'SIMLIKLARDAN AJRATILGAN QORA RANGLI ENDOFIT ZAMBURUG'LARINING TAVSIFNOMASI	47
Bo'rieva M.R., Nuralieva X.A., Kodirova D.E.	
"IDENOL" TABLETKASINING TEXNOLOGIYASI VA MIQDORIY TAHLILI	47
Dusmetova J.R. Rakhimova G.R.	
ITTIKANAK O'SIMLIGI ASOSIDA TAYYORLANGAN YIG'MADAN SUYUQ EKSTRAKT OLISH TEXNOLOGIYASIGA OID IZLANISHLAR	48
Erkaeva Sh.Q., Pazilbekova Z.T., Abdullaeva R.A.	
STUDY OF THE TECHNOLOGICAL PROPERTIES OF TABLET SUBSTANCES "PODAGRIN"	49
Ernazarov A.M., Yunusova H.M.	
QIZIL DO'LANA (CRATAEGUS SANGUINEA) MEVALARIDAN DAMLAMA OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA SIFATINI BAHOLASH	50
Erzat N., Djienbekov A.K.	
ROLE OF AI IN ROBOTICS IN NEW DRUG WITH PHYTOMEDICINE IN CLINICAL PHARMACOLOGY	50
Abdul Majeed Kaamran	
"GLABRUS" QURUQ EKSTRAKTNING FARMAKOTEXNOLOGIK XOSSALARINI O'RGANISH	51
Karayeva N.Yu., Abdulladjanova N.G.	
DEVELOPMENT OF POLYMER PATCHES BASED ON GELLAN GUM	51
Kuldanova A.A., Akhelova A.L., Begimova G.U.	
POVIDON YOD ASOSIDA DORIVOR POLIMER PARDALARNI OLISHDA TURLI XIL POLIMERLAR TA'SIRINI O'RGANISH	52
Mamajonova M.N., Ishmuxamedova M.A.	
ALFA-LIPOY KISLOTASI SAQLAGAN DORI PREPARATLARI DINAMIK O'ZGARISHLAR TAHLILI ..	53
Matyayubova Sh.N., Zakirova R.Yu.	
KOSMETIKA VOSITALARINI VA BIOLOGIK FAOL QO'SHIMCHALARINI ISHLAB CHIQARISH SIFATINI ANIQLASHNING AHAMIYATI	54
Mexriddinov A., Djurayeva S.Z.	
OBTAINING EXTRACTS BASED ON FAN-SHAPED HAWTHORN FRUITS	54
Namozov F.Sh., Farmonova G.Z.	